



**CHIQINDILARNI BOSHQARISH VA SIRKULAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH
AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG'I**

**Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi
rasmiy veb-saytida ma'lumot joylashtirish va yangilash uchun mas'ul
xodimlarni belgilash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 373-son qarori ijrosini ta'minlash hamda Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligining rasmiy veb-saytida ma'lumotlarni joylashtirish va yangilash uchun mas'ul xodim belgilash maqsadida

BUYURAMAN:

1. **Matbuot kotibi** (Kamilova) Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik)ning rasmiy veb-saytiga ma'lumotlarni joylashtirish va yangilash uchun mas'ul xodim etib belgilansin.

2. Quyidagilar:

Ijro nazorati va murojaatlarni ko'rib chiqish bo'limi (Dusmanov) Agentlik rasmiy veb-sayti orqali kelib tushadigan murojaatlarga;

Korrupsiyani qarshi kurashish kompleksi bo'yicha bosh mutaxassis Agentlik rasmiy veb-saytining "Korrupsiyani oldini olish bo'yicha murojaat" bo'limi uchun;

Call center (Eshimov) Agentlik rasmiy veb saytining "Qayta aloqa" bo'limi uchun mas'ul etib belgilansin.

3. Yuqorida belgilangan ijrochilar murojaatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqish, tegishli mas'ul xodimlarga yo'naltirish va murojaatchilar bilan bog'lanish ishlarini tizimli ravishda tashkil etsin.

4. **AKTni joriy etish va raqamlashtirish bo'limi** (Tursunov) Agentlik rasmiy veb-saytida o'zgarish shakldagi menyu va sahifalarni joylashtirish hamda yuzaga keladigan texnik holatlarni doimiy monitoring qilib borsin hamda bartaraf etsin.

5. **Devonxona** (Gulamov) mazkur buyruqni ijrochi bo'linmalarga yetkazilishini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish direktor o'rinbosari v.v.b. Sh. Sobirov zimmasiga yuklansin.

Direktor

Sh. Hasanov

2025-yil "14" - 07

73 - son

ASLIGA TO'G'RI